

TA'LIM JARAYONIDA YANGI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH VA UNING TA'SIRI

Axmadova Dilafroz O'lmas qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

axmadovad145@gmail.com

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar Nematillayevna

***Annotatsiya:** Maqola "Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash va uning ta'siri" mavzusini o'rganadi va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rni va ta'sirini tahlil qiladi. Bugungi kunda raqamli vositalar, onlayn ta'lim platformalari, sun'iy intellekt va interaktiv dasturlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Maqolada texnologiyalar yordamida o'quvchilarning o'qish va bilim olishdagi yondashuvlari qanday o'zgarayotgani, shuningdek, o'qituvchilar uchun yangi pedagogik yondoshuvlar va metodologiyalarni joriy etishning imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** Ta'lim jarayoni, yangi texnologiyalar, raqamli ta'lim, onlayn ta'lim, interaktiv metodlar, sun'iy intellekt, pedagogik innovatsiyalar, o'qitish samaradorligi, o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganishi, ta'lim tizimi, virtual klasslar, ta'lim platformalari, ta'limda integratsiyasi, o'qituvchilarni tayyorlash, bilim olish usullari, ta'limning raqamli transformatsiyasi, o'qitishning yangi metodlari, texnologik ta'sir, ta'limda adolat, pedagogik yondashuvlar.*

Hozirgi zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar har bir sohada, har bir jabhada ishtirok etadi. Xususan , ta'lim sohasida ham. XXI asr raqamli texnologiyalar asri. Shunday ekan, ta'lim sohasini ham raqamli texnologiyalar chetlab o'tmaydi. Yangi texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini yaxshilaydi, ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Har bitta ta'lim jarayoni o'zining zamonaviy texnologiyalarga boyligi va yangicha yondashuvlari bilan o'z sifat darajasini ko'taradi. Bu yo'lda davlat ham, pedagoglar ham shu o'rinda yosh avlod ham bir

xilda mas'uldirlar. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilganligidir. Zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Innovatsiya so'zi inglizcha "innovation" so'zidan olingan bo'lib, yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash demakdir. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, hozirgi kunda eng ko'p rivojlangan sun'iy intellekt tushunchasi. Bunga o'xshash sun'iy intellektlar insonlarni ayniqsa o'quvchi yoshlarni ishlarini yengillatdi, afsuski, ularning mantiqiy fikrlashiga, dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishni boshladi. Chunki ularga berilgan har bir topshiriq uchun sun'iy intellektdan yordam so'radilar va o'zlarining mantiqiy fikrlashini o'ldirdilar.

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. O'qituvchining pedagogik mahorati mana shu yerda namoyon bo'ladi. O'qituvchi darsda belgilangan texnologiyalardan to'g'ri

foydalanishni , me'yorda foydalanishni o'rgatmog'i lozim. O'quv jarayonida o'quvchilar o'zlari mustaqil harakat qila olsalar, mantiqiy fikrlay olsalar, o'zlarining tengdoshlariga baho bera olsalar bu ularning yutuqlari hisoblanadi.

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Har bir malakali o'qituvchi o'zining darsini qiziqarliroq , faolroq o'tkazish uchun yangi texnologiyalardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, kimyo fani o'qituvchisi moddalarning reaksiyaga kirishishi haqida va shunga o'xshash mavzuga doir narsalarni tushuntirish uchun texnologiyalardan foydalansa o'quvchilarga dars juda ham tushunarli bo'ladi.

X

u

l

o

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha ta'lim muassalarining katta guruhlari uchun ingliz tili. NN Zubaydova

IT Patent 001, 349, 2019

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Kd2Pm0AAAAJ&citation_for_view=Kd2Pv-oAAAAJ:LPZeul_q3PIC

2. Chet tillarini o'rganish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

2022/ Nafisa Rayimovna Kobilova, Zahir Yusupovich Irisqulov.

3. TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

2022/ Hamroqulov, To'lqinjon Tohirovich.